TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdullayev Suxrobiddin Ismoilovich
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Moliya, bank ishi va buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o’qituvchisi. TDIU mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.20748097

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi ko‘p qirrali faoliyati, jumladan, emitent, investor va vositachi sifatidagi rollari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, banklarning investitsion portfelini shakllantirish strategiyalari va ushbu jarayondagi risklarni boshqarish masalalari tahlil etilgan. O‘zbekiston moliya bozoridagi bugungi islohotlar fonida banklarning qimmatli qog‘ozlar bilan ishlash samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banki, qimmatli qog‘ozlar bozori, aksiyalar, davlat obligatsiyalari, investitsion portfel, emissiya, brokerlik.*

Bugungi kunda jadal rivojlanishda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va bozor mexanizmlarini keng joriy etish sharoitida moliya tizimining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri bo‘lgan tijorat banklarining faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Tijorat banklari moliyaviy tizimning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ular iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar nafaqat kreditlar berish va depozitlar qabul qilish bilan emas, balki qimmatli qog‘ozlar bozorida ham faol ishtirok etadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori – bu moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, kapitalning yig‘ilishi va investitsiya imkoniyatlarining kengayishi uchun asosiy maydon hisoblanadi. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati juda keng qamrovli va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni emissiya qilish, investitsiya kiritish va vositachilik qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi[1]. Bu jarayonlar banklarning likvidligi, daromadlarini oshirish, va risklarni boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Tijorat banklari bugungi kunda qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati banklarning investitsion faoliyatini asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular moliyaviy barqarorlikni ta’minlash hamda mijozlarga kengroq moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda tijorat banklari davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar hamda boshqa moliyaviy vositalardan foydalanadi. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati ko‘p qirrali va murakkab tizim bo‘lib, u bir necha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: emissiya, investitsiya, va vositachilik operatsiyalari. Ushbu yo‘nalishlarning har biri banklar uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning umumiy moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya operatsiyalari moliyaviy vositalarni chiqarish va ularni sotuvga qo‘yish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu operatsiyalar banklarga

[1] O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni. (Yangi tahriri) 2019-yil 5-noyabr

kapitalni jalb qilish va ularni iqtisodiyotning turli sektorlariga yo‘naltirish imkonini beradi. Emissiya operatsiyalari banklar uchun nafaqat yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ularning likvidligi va kapital yetarliligini ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklarining o‘z mablag‘larini shakllantirish, ya’ni emission operatsiyalari natijasida shakllantirilgan kapitali tarkibi ko‘riladigan bo‘lsa, qimmatli qog‘oz (aksiya)larning nominal bahosi va bozor bahosi o‘rtasidagi farqning qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligining guvohi bo‘lamiz. Quyidagi jadvalda ATB “Mikrokreditbank” va AQSHning Amerika bankini o‘z mablag‘lari tarkibi keltirilgan.

1.1-javdal

ATB “Mikrokreditbank” va AQSHning Amerika banki o‘z mablag‘lari tarkibi[2]

Kapital manbalari	“Mikrokreditbank” ATB	Amerika banki
Ustav kapitali	78,0	8,7
Qo‘shimcha kapital	0,3	58,6
Zaxira kapitali	10,0	-
Taqsimlanmagan foyda	14,7	25,4
Ozchilikning ulushi	-	2,4
Qayta baholash zaxirasi	-	8,2
Jami kapital	**100**	**100**

Jadvaldagi ma’lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, banklar tomonidan emissiya qilingan qimmatli qog‘ozlarning nominal qiymati va bozor qiymati o‘rtasidagi tafovutning naqadar muhimligini ko‘rishimiz mumkin. ATB "Mikrokreditbank"ning kapitali asosan ustav kapitali (78,0 foizi) – ya’ni, emissiya qilingan aksiyalarning nominal qiymati hisobiga shakllangan.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Amerika bankining ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymati hisobiga shakllangan ulushi atigi 8,7 foizni tashkil etadi, aksincha, o‘z mablag‘lari tarkibidagi qo‘shimcha kapital ulushi emissiya qilingan aksiyalarning bozor qiymatining yuqoriligi sababli 58,6 foizga teng bo‘lgan. Shuningdek, bankning taqsimlanmagan foydasi o‘z mablag‘lari tarkibidagi ulushi 24,3 foizni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich ATB "Mikrokreditbank"da 14,7 foizni tashkil etgan.

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga tayangan holda, O‘zbekiston va AQSH tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatiga baho berishimiz hamda ushbu bozorning banklar faoliyatidagi nazariy ahamiyatini tahlil qilishimiz mumkin.

Birinchidan, banklarning o‘z mablag‘lari tarkibidagi manbalar ulushini tahlil qilish orqali qaysi mamlakatda tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati samaraliroq tashkil etilganligini aniqlash mumkin. Bu nuqtayi nazardan qaraganda, AQSH banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati yuqori rivojlangan bo‘lib, ularning kapitalining asosiy qismi qo‘shimcha kapital hisobiga shakllantirilgan.

Ikkinchidan, tijorat banklarining aksiyadorlarga dividend to‘lashda AQSHning Bank of Amerika bankining bir qator afzalliklar mavjud. Bu bankda dividendlar aksiyalarning nominal qiymati asosida to‘lanadi, bu esa kapitalning yetarliligini qo‘shimcha kapital hisobiga ta’minlash bilan birga, dividendlarga ajratiladigan foydaning katta qismini bank ixtiyorida saqlab qolishga imkon beradi.

[2] ATB “Mikrokredit bank” va AQSH Amerika banklarining moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

Uchinchidan, tijorat banklarining moliyaviy hamkorlari, investorlari va aksiyadorlari tomonidan qarorlar qabul qilishda bankning o‘z mablag‘lari tarkibida qo‘shimcha kapital ulushining yuqoriligi ijobiy ta’sir ko‘rsatishi tabiiydir. Chunki bu, bank aksiyalarining moliya bozorida jozibadorligini oshiradi va bankning moliyaviy jihatdan barqaror ekanligidan darak beradi.

To‘rtinchidan, bank kapitalini oshirish bilan bog‘liq vaziyatlarda, emissiya qilingan aksiyalarning nominal qiymatining bir necha bor yuqori bo‘lishi, masalan, kapitalni 10 million dollarga oshirish uchun nominal qiymati 1 million dollar bo‘lgan aksiyalarni emissiya qilishning yetarli bo‘lishini ta’minlaydi.

Tahlillar va shuni ko‘rsatadiki, iqtisodchi olimlar va mutaxassislar nazariy va ilmiy nuqtayi nazardan tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoriga bevosita ta’riflar ishlab chiqmaganlar. Shunga qaramay, banklarning qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati keng miqyosda o‘rganilgan va bir qator muhim xulosalar chiqarilgan.

Tijorat banklari moliyaviy tizimning asosiy elementlaridan biri bo‘lib, ular iqtisodiyotning barqarorligi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Banklar nafaqat kreditlar berish va depozitlar qabul qilish, balki qimmatli qog‘ozlar bozorida ham faol ishtirok etadi. Qimmatli qog‘ozlar bozori – bu moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi, kapitalning yig‘ilishi va investitsiya imkoniyatlarining kengayishi uchun asosiy maydon hisoblanadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati juda keng qamrovli va ko‘p qirrali bo‘lib, ularni emissiya qilish, investitsiya kiritish va vositachilik qilish kabi jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar banklarning likvidligi, daromadlarini oshirish, va risklarni boshqarish uchun muhim vosita hisoblanadi.


Shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyat banklarning investitsion faoliyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va mijozlarga kengroq moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishga xizmat qiladi. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda tijorat banklari davlat obligatsiyalari, korporativ obligatsiyalar, aksiyalar hamda boshqa moliyaviy vositalardan foydalanadi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyati ko‘p qirrali va murakkab tizim bo‘lib, u bir necha asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: emissiya, investitsiya, va vositachilik operatsiyalari. Ushbu yo‘nalishlarning har biri banklar uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ularning umumiy moliyaviy barqarorligi va rentabelligini oshirishga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi emissiya operatsiyalari moliyaviy vositalarni chiqarish va ularni sotuvga qo‘yish jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu operatsiyalar banklarga kapitalni jalb qilish va ularni iqtisodiyotning turli sektorlariga yo‘naltirish imkonini beradi. Emissiya operatsiyalari banklar uchun nafaqat yangi moliyaviy resurslarni jalb qilish, balki ularning likvidligi va kapital yetarliligini ta’minlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Emissiya jarayonida banklar ko‘pincha aksiyalar va obligatsiyalar kabi qimmatli qog‘ozlarni chiqaradi. Aksiyalar bankning kapitaliga ulush egalik qilish imkoniyatini beradi, obligatsiyalar esa qarz majburiyatlari sifatida qarz oluvchi va kreditor o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatadi. Emissiya qilinadigan qimmatli qog‘ozlarning nomzodlari va miqdori aniq belgilangan qonunchilik normalari asosida belgilanadi, bu esa banklar faoliyatining huquqiy va tartibga soluvchi bazasi uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, qimmatli qog‘ozlarning bozorga chiqishi va ularning investorlar orasida tarqalishi banklar uchun muhim strategik qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bu jarayonlar bankning moliyaviy qudratini oshirish, investorlar bilan munosabatlarni mustahkamlash va o‘z pozitsiyasini bozorning faol ishtirokchisi sifatida mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiya operatsiyalari ularning o‘z mablag‘larini turli moliyaviy vositalarga sarmoya kiritish orqali amalga oshiriladi. Bu operatsiyalar banklar uchun uzoq muddatli daromad manbai bo‘lib, ularning investitsiya portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish imkonini beradi.



1.2-rasm. Tijorat banklarini qimmatli qog‘ozalar bozori faoliyati tasniflanishi[3]

-Investitsion faoliyat: Tijorat banklari qimmatli qog‘ozlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya kiritadi, ya’ni ular qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish orqali daromad olishga harakat qiladi.

-Brokerlik xizmatlari: Banklar mijozlar uchun qimmatli qog‘ozlar sotib olish va sotish jarayonlarini amalga oshiradi. Bu jarayonda banklar komissiya yoki xizmat haqi evaziga mijozlarga vositachilik qiladi.

-Emissiya xizmatlari: Banklar korporatsiyalar yoki hukumat uchun qimmatli qog‘ozlar chiqarishda (emisiyada) ishtirok etadi. Ular bu jarayonni tashkil etish, qimmatli qog‘ozlarni joylashtirish va sotish bilan shug‘ullanadi.

Investitsiya operatsiyalari jarayonida tijorat banklari aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni sotib olib, ularning bozor qiymati o‘sishidan daromad oladi. Ushbu faoliyat, shuningdek, banklarning umumiy moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi, chunki u moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi va kapitalning oshishiga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, banklar o‘z investitsiya portfelini boshqarishda risklarni diversifikatsiya qilish, ya’ni moliyaviy vositalar o‘rtasida balansni saqlash orqali risklarni kamaytirishga intiladi. Bu esa banklarning daromadlilik darajasini optimallashtirish va moliyaviy resurslarni eng samarali yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Tijorat banklarining vositachilik operatsiyalari qimmatli qog‘ozlar bozorida mijozlar nomidan turli moliyaviy vositalarni sotib olish va sotish bilan bog‘liq. Ushbu operatsiyalar orqali banklar o‘z mijozlariga moliyaviy bozorlar bilan bevosita bog‘lanish imkoniyatini taqdim etadi. Vositachilik operatsiyalari banklar uchun qo‘shimcha daromad manbai bo‘lib, ularning xizmat ko‘rsatish spektrini kengaytirishga xizmat qiladi.

Banklar vositachilik faoliyatida bir nechta asosiy vazifalarni bajaradi. Avvalo, ular mijozlarga moliyaviy vositalar sotib olish va sotishda yordam beradi, shu jumladan qimmatli qog‘ozlar narxlari

[3] Rasm muallif tomonidan shakllantirildi

bo‘yicha maslahatlar beradi, bozor tahlillarini amalga oshiradi va eng yaxshi savdo shartlarini taqdim etadi. Bundan tashqari, banklar mijozlar uchun moliyaviy vositalarning xavflarini boshqaradi, bu esa mijozlarga risklarni minimallashtirish va investitsiya strategiyalarini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ushbu operatsiyalar banklarning moliyaviy bozorlar bilan bog‘liqligini mustahkamlaydi va ularning moliyaviy xizmatlar portfelini kengaytirishga imkon beradi. Natijada, banklar nafaqat mijozlar ishonchini qozonadi, balki bozor ishtirokchilari orasida o‘z mavqeini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-580-sonli Qonuni. (Yangi tahriri) 2019-yil 5-noyabr
2. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-598-sonli Qonuni. 2019-yil 25-dekabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2015-yil 21-dekabrdagi PQ-2454-son Qarorining bajarilishi haqida”gi 252-sonli Qarori. 2016-yil 5-avgust.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Qimmatli qog‘ozlar ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 196-sonli Qarori. 2003-yil 29-aprel